

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich - Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti katta o'qituvchisi.

Хошимов Санжарбек Султонбекович - докторант Ферганского государственного университета, Старший преподаватель Международного института пищевых технологий и инженерии.

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich - Doctoral student of Fergana State University, Senior lecturer of the International Institute of Food Technology and Engineering

INSON TUSHUNCHASINING G'ARB VA SHARQ FALSAFASIDAGI GNOSEOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada insonni kelib chiqishi, uni g'arb va sharq falsafasida tutgan o'rni, shuningdek turli faylasuf olimlarning inson to'g'risidagi fikrlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Inson, "kosmobiopsixososiomadaniy" mavjudot, insoniy ruh va ma'naviyat, sharq falsafasi, g'arb falsafasi, falsafiy antropologizm, shaxsiy najot, ijtimoiy taraqqiyot.

ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ ЧЕЛОВЕКА В ЗАПАДНОЙ И ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация: Статья посвящена происхождению человека, его роли в западной и восточной философии, а также взглядам различных философов на людей.

Ключевые слова: человек, космобиопсихосоциокультурное существо, человеческий дух и духовность, Восточная философия, западная философия, философская антропология, личное спасение, социальное развитие.

GNOSEOLOGICAL ANALYSIS OF HUMAN CONCEPT IN WESTERN AND EASTERN PHILOSOPHY

Abstract: The article is devoted to the origin of man, his role in Western and Eastern philosophy, as well as the views of various philosophers on people.

Keywords: human, cosmobiopsychosociocultural creature, human spirit and spirituality, Eastern philosophy, western philosophy, philosophical anthropology, personal salvation, social development.

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rni masalasi barcha davrlarda muhim o‘rin tutishi bejiz emas. Turli ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo‘lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o‘zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilaveradi. Binobarin, Suqrotning “O‘z-o‘zingni anglagin va bilgin” degan hikmatli so‘zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Inson o‘tgan davr mobaynida ne-ne mashaqqatlarga duch kelganiga qaramay tabiatning buyuk sirlarini hamda o‘z-o‘zini asta-sekin, izchillik bilan anglab bormoqda.

Bugun kunda insonni “kosmobiopsixosotsiomadaniy” mavjudot deb ta’riflashimiz mumkin bo‘lmoqda. Ya’ni insonni koinotning bir bo‘lagi, ruhiyat sohibi, ijtimoiylashgan va madaniyat bilan uyg‘unlashgan mavjudot sifatida ko‘rmoqdamiz.¹

Ha, odamzot tabiat sirlarini ochish yo‘lida sobitqadamlik bilan ildamlamoqda, ammo u o‘zligini anglash borasida ham shunday muvaffaqiyatga erishdi deb ayta olamizmi? E’tirof etmoq lozimki, inson hali o‘z tabiati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lolgani yo‘q. Unga insonni bilishdan ko‘ra olam sirlarini ochish osonroq. Deyarli uch ming yildan beri faylasuflar inson o‘zi kim, qaydan keladi-yu qayga ketadi degan savollarga javob topishga urinadilar. Ammo haligacha bu savollarga aytarli javob topilgani yo‘q. Shunisi aniqki, inson o‘z tabiatini anglamaguncha, o‘zining cheksiz koinotdagi o‘rnini bilib olmaguncha, inson ko‘nglidagi kechinmalarga, ijtimoiy, milliy va xalqaro munosabatlarga oid muammolarni hal qila olmaydi. Inson tabiati - g‘oyat murakkab. Unda hayvoniy

¹ Khoshimov S. INTERPRETATION OF HUMAN PROBLEMS IN PHILOSOPHICAL THINKING OF EAST AND WEST // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90).

va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u - hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma'naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko'taradi.

Butun dunyoda inson fikrlash va mantiqning bir xil usullariga rioya qiladi. Inson ongining xususiyatlari umumiy va bir xildir. Inson ongi o'xshash bo'lishiga qaramay turli mintaqalarda yashovchi odamlar bir qator umumiy muammolarga turlicha yondasha boshladilar. Shu bois sayyoramizning turli mintaqalarida yashovchi odamlar bir xil muammolarning har xil jihatlariga e'tibor qaratishgani tabiiy hol.

Sharq va G'arb faylasuflarining qarashlarida o'xshashliklar ko'p, biroq Hindiston, Yunoniston va Xitoydagi dunyoqarashning har xil jihatlariga beriladigan urg'udagi tafovutlar qadim zamondan hozirgacha yozilgan kitoblarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Hind falsafasi insonning ichki olamiga ko'proq e'tibor qaratgan. Faylasuflar insonning tabiatini tushunishga intilishgan.

Yunon faylasuflarini asosan atrofimizni qurshab turgan tashqi olam xususiyatlari qiziqtirgan. Ular insonning borliqdagi o'rnini aniqlashga intilganlar. Shu bois ular tutgan yo'l hindlar tutgan yo'ldan ko'ra osonroq va yengilroqdir. Xitoyda ham faylasuflarni insonning ichki va tashqi olami unchalik qiziqtirmagan. Bugun buddaviylikning Xitoy taraqqiyotidagi o'rniga urg'u berilishi bejiz emas. Bu farqlar falsafaning ushbu mintaqalardagi keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani bizga ma'lum.

Yevropa tafakkurining taraqqiyotiga Aflotunning g'oyaviy konsepsiyalari va nasroniylik kuchli ta'sir ko'rsatgani shubhasiz. O'rta asr G'arb falsafasi insonga ikki negiz: oliy (ruh) va past (tan) bir-biri bilan uzluksiz kurash olib boruvchi mavjudot sifatida qaradi. Yevropadagi din falsafasining "otasi" Avreliy Avgustin insonning mohiyatini aynan ruh va tana tashkil etadi, deb hisobladi. Tana vaqtinchalik qobiqdan, ruh "zindoni"dan boshqa narsa emas deb ta'kidladi. Din falsafasining yana bir vakili Foma Akvinskiy esa odam ruh bilan tanning uyg'un birligidan iborat va bu hol uni quyi, hayvoniy dunyo bilan oliy,

ilohiy, farishtalar olami o'rtasida arosatda qolgan mavjudot qilib qo'yadi. Unda jismoniylik qancha ko'p bo'lsa, u hayvonga shunchalik yaqinlashadi, ruhiyat qancha ko'p bo'lsa u shuncha farishtalarga yaqinlashadi.

Yangi davr boshlanishi bilan Yevropa falsafiy tafakkuridagi diniy-idealistik yo'nalish o'z o'rnini falsafiy dunyoqarashga bo'shatib berdi. G'arb insonga ob'yektlar ichidagi bir ob'yekt deb qarab, inson hayotining barcha sohalarida ilmiy konsepsiyalar va ilmiy metodlarni qo'llashga urindi. Shu bois nemis faylasufi I.Kant "inson dunyodagi eng asosiy mavjudotdir". U bir tomondan, tabiatga tegishlidir, ikkinchi tomondan - axloqan erkin va uchinchidan, doimo qadriyatlar bilan ish ko'radi. Bu sifatlarning birinchisida inson zaruriyat oldida tursa, ikinchisida ma'naviy erkinlikka egadir deb ta'rifladi.² Vaqt o'tishi bilan materialistik va ilmiy yo'nalish G'arbda keng tarqalgan dunyoqarashga aylandi.

G'arbda XIX asr falsafiy fikrning inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi eng muhim yutuqlaridan biri - bu L.Feyerbaxning falsafiy antropologizmidir. U inson mohiyati muammosini falsafaning "birdan-bir, universal va eng oliy" muammosi sifatida qaradi va birinchi o'ringa olib chiqdi.³ Biroq Feyerbax, aslida, insonga biologik nuqtai nazardan qaraydi, uning ijtimoiy mohiyatini izohlamaydi, ya'ni, yuqorida qayd etilgan "sotsio" mavjudot ekanligi e'tiborsiz qolgan.

Inson to'xtovsiz rivojlanayotgan jonzot degan qarashning aksi o'laroq Sharqda biz mutlaqo boshqa inson tushunchasiga duch kelamiz. Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rishimiz mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasiiga suyanadi. Qadim zamonlardanoq Sharq mutafakkirlari ma'naviyat insongagina xosligini ta'kidlashgan. Inson qalbini mushohada qilish, ma'naviyatli inson tushunchasi Sharqdagi barcha mamlakatlarda falsafiy tafakkurga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Inson mohiyati, uning hayotdagi o'rni va qadr-qimmatini, iymon-

² Kant I. Soch. T.N.Ch 1. M., 1965. 153-b.

³ Философия. Ростов-на-Дону, 1996. 264-b.

e'tiqodi, odob-etikasi masalasiga sharq faylasuflari alohida e'tibor berganligini ko'rishimiz mumkin.

Sharqcha inson tushunchasi odamni "Hazrati Inson" deya ulug'lar ekan, unda komillik, olimlik, qodirlik kabi ollohga xos ko'pdan-ko'p xususiyatlarni ko'rishni istaydi. Shu bois insonda ularga intilishdan boshqa ulug' maqsad bo'lishi mumkin emas. Shu jihati bilan u boshqa barcha jonzotlardan ustundir. Mavlono Jaloliddin Rumiy ta'kidlashicha "Mo'min so'fiy Xudoning vujudini isbotlamasligi kerak, balki uni qalban his etishi lozimdir".⁴

Shuni esda tutish lozimki, inson real ijtimoiy munosabatlarning in'ikosidir. Insonning shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida uning ijtimoiy faoliyati, ijtimoiy hayotda muayyan rolni bajarishida namoyon bo'ladi. Inson shaxs sifatida faqat turli tuman ijtimoiy munosabatlardagina o'z-o'zini namoyon etishi mumkin. O'z vaqtida Arastu "insonning vazifasi uning ongli faoliyatidan iborat" deb hisoblagan edi. A.Jomiy "Qo'llaring baquvvat ekan, mavjud ekan kundalik mehnatga ko'ngil qo'y" deya da'vat etgan bo'lsa, Ibn Sino "Bekorchilik va ishyoqmaslik faqat nodonlikka sabab bo'libgina qolmay, ayni paytda kasalliklarga ham sabab bo'ladi" deb ogohlantirgan edi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida Najmiddin Kubroning "Muvaffaqiyatni – sa'y-xarakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko'rdim" degan so'zlari bejiz keltirilmagan.⁵

Insonning hayotiy faolligi uning shaxsining shakllanishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon davomida faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz berib qolmasdan balki inson uni o'z xohishiga mos ravishda o'zgartiradi. Bunda chinakam insoniy, shaxsiy, ijtimoiy taqozo etilgan olam shakllantiriladi. Jamiyatning o'zi, uning tizimi va tuzilishi, undagi munosabatlarni tashkil etuvchi unsurlar - bularning hammasi shaxs

⁴ Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichingdadir. Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B. 107.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.

bunyodkorlik faoliyatining, uning dunyoni o'zgartiruvchi ijodiy faoliyatining natijasi. I.Kant insonning jamiyatdagi o'rni va roli haqida "Inson faqat vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida ham o'z-o'zicha mavjud bo'ladi..., o'zining barcha xatti-harakatlarida u maqsad sifatida ham qaralishi zarur", - deb ta'kidlaydi.⁶

Kelajak uchun inson tushunchasining sharqcha va g'arbcha sintezi nima uchun bu qadar muhimligining sabablari bor albatta. Ilm-fan o'z-o'zidan xolisdir. Ilmiy kashfiyotni bunyod qilish uchun ham, vayron qilish uchun ham qo'llash mumkin. Bu ilmni egallagan kishining aql-idroki va fikrlash tarziga bog'liq. Agar insonga faqat rivojlanuvchi mavjudot sifatida qarasak, unda hech nima hayvoniy nafs va ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishiga to'sqinlik qilolmaydi. Agar insonga hazrati inson, ma'naviyatli inson sifatida yondashsak, u egallagan ilm yer yuzida tinchlik va totuvlikka erishilishiga va hamma odamlarning ezgu orzu-niyatlari ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Yakunda esa sharqcha va g'arbcha inson tushunchasi ma'lum darajada birbirini to'ldirishi lozim. Birida insonning azizu-mukarramligi ta'kidlansa, boshqasida inson erishgan va o'z kuchi bilan erishishga qodir bo'lgan taraqqiyotga alohida ahamiyat beriladi. Birida inson tabiatining ma'naviy asosiga e'tibor qaratilsa, ikkinchisi ma'naviy ustunlik moddiy asosga ham tayanishini qayd etadi.

O'rtadagi mavjud farqlar ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rishimiz mumkin. Sharqda ham, G'arbda ham ta'lim tizimlarining o'z qoidalari mavjud. Sharqda shaxsiy najot tushunchasiga katta e'tibor qaratiladi. Inson o'zini qutqarish uchun ilmga intiladi. Shaxsiy najot muammosini birinchi o'ringa qo'yuvchi Sharq tafakkuri ijtimoiy farovonlik va taraqqiyotga har doim ham yetarlicha e'tibor qaratmagan. G'arbda esa aksincha, ijtimoiy taraqqiyot masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Haqiqatda esa ijtimoiy farovonlikka

⁶ Kant I. Soch. T.N.Ch 1. M., 1965. 269-b.

bunday katta e'tibor qaratilishi ba'zan inson qadr-qimmatini kamsitiladigan totalitar jamiyatlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Ilm-fan rivojlanishi tufayli Sharq va G'arbda bugungi kunda shaxsga, jamiyatga nisbatan bo'layotgan turlicha pessimistik munosabatlarga barham berilib, ikkovining ham muhimligi e'tirof etilishi va har ikkalasiga yetarlicha e'tibor qaratiladigan ta'lim tizimi yaratilishi lozim.

Shu tariqa ta'limning bugungi kunimizdagi ahamiyati ayon bo'ladi. Tadqiqodlardan bizga ma'lumki, ta'lim insonni, u orqali esa jamiyatni o'zgartirishga qodir. Kishi shaxsga aylanmagan joyda jamiyat mukammal bo'la olmaydi. Shu bois hozirgi zamonda ta'lim barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilishi, sharqcha va g'arbcha inson tushunchalari esa bu jarayonga o'z ulushlarini qo'shishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Khoshimov S. INTERPRETATION OF HUMAN PROBLEMS IN PHILOSOPHICAL THINKING OF EAST AND WEST // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/interpretation-of-human-problems-in-philosophical-thinking-of-east-and-west>
2. Kant I. Soch. T.N.Ch 1. M., 1965. 153-b.
3. Filosofiya. Rostov-na-Donu, 1996. 264-b.
4. Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir. Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B. 107.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.
6. Kant I. Soch. T.N.Ch 1. M., 1965. 269-b.
7. Санжарбек Султонбекович Хошимов ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ // Academic research in educational sciences. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/van-yan-min-falsafiy-talimotining-manaviy-ahlo-iy-va-gnoseologik-irralari>
8. Sulonbekovich, Xoshimov Sanjarbek. "GLOBALLASHUV JARAYONIDA SIYOSIY MADANIYATNING O'ZIGA XOSLIGI." *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS* 3.4 (2022): 113-117.

9. Хошимов С. С. ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОКИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚДРРАЛАРИ // Academic research in educational sciences. – 2020. – Т. 3.

10. Khoshimov, Sanjarbek Sultanbekovich. "Thoughts about human nature in chinese philosophical thinking and their interpretation in the ideas of wang yan min." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2.1 (2020): 173-177.

11. Хошимов С.С., Эргашев У.А. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ ЛИЧНОСТИ К ПРИРОДЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ // Экономика и социум. 2022. №11-1 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-formirovaniya-esteticheskogo-otnosheniya-lichnosti-k-prirode-i-ekologicheskoy-nravstvennoy-kultury>

12. Sultonbekovich, H. S. (2022). The Role of Bioethics in the System of Natural Sciences and Social Sciences. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 338-342. Retrieved from <https://cajpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/613>

13. Хошимов С.С., Тожибоев У.У. ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ // Экономика и социум. 2022. №11-2 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-formirovaniya-internet-kultury-u-molodezhi>

14. Sultanbekovich, H. S. (2023). The Philosophy of Human in the Doctrine of Wang Yang Ming. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 194-197. Retrieved from <https://cajpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/920>

15. Хошимов С.С., Тожибоев У.У. НАРОДНЫЕ ДВИЖЕНИЯ ПРОТИВ РОССИИ В ТУРКЕСТАНЕ // Экономика и социум. 2023. №4-2 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/narodnye-dvizheniya-protiv-rossii-v-turkestan>

16. Xoshimov Sanjarbek. (2022). MILLIY-MADANIY QADRIYATLAR TIZIMI – JAMIYATIMIZ MA’NAVIY TIKLANISHINING MUHIM ZAMINI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(4), 898–904. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/363>

17. Xoshimov S. ABU NASR FOROBIYNING TA’LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QARASHLARI // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-ta-lim-tarbiya-berishga-oid-pedagogik-va-psixologik-qarashlari>

18. Хошимов С. ВАН ЯН МИН ФАЛСАФАСИДА ИНСОН ТАБИАТИ ТАҲЛИЛИ АНАЛИЗ ПРИРОДЫ ЧЕЛОВЕКА В ФИЛОСОФИИ ВАН ЯНЬ МИН // Экономика и социум. 2021. №12-2 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/van-yan-min-falsafasida-inson-tabiiati-ta-lili-analiz-prirody-cheloveka-v-filosofii-van-yan-min>

19. Khoshimov S. INTERPRETATION OF HUMAN PROBLEMS IN PHILOSOPHICAL THINKING OF EAST AND WEST // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/interpretation-of-human-problems-in-philosophical-thinking-of-east-and-west>

20. Хошимов Санжарбек. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ МАСАЛАСИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6642206>

21. Мадаминов А.А. Морально-нравственное формирование человека в трактатах учёных Фараби и Беруни. Достижение науки и образования. №13(35), 2018. Стр. 48-51.

22. Мадаминов А.А. Политические технологии как важный фактор развития общества в эпоху глобализации. Вестник науки и образования. 2019. №19(73). Ч.3. октябрь 59-60стр.

23. А.А.Мадаминов. Политическая студенческой молодёжи в современном обществе. Вопросы науки и образования. №1(13). Январь. 2018. Стр. 194-196. <https://cyberleninka.ru/article/n/politicheskaya-kultura-studencheskoy-molodezhi-v-sovremennom-obschestve/viewer>

24. А.А.Мадаминов. Образование молодежи – проблемы и решения. Экономика и социум». №10(113) -1 2023 www.iupr.ru. Стр.514-517. http://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_a39509172cfb44a388686aed511ea09d.pdf?index=true